
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi U.S.Ismoilov ishtirokida 2017 yil 15 may kuni soat 19-00 da viloyat hokimligida o'tkaziladigan yig'ilishda Farg'ona viloyati hokimi Sh.M.G'anievning KIRISH SO'ZI

Assalomu alaykum hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoevning aholining turmush darajasi sifatini oshirishga qaratayotgan alohida e'tiborlari, shuningdek, respublikaning har bir hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi topshiriqlari, ko'rsatmalari hamda joriy yilning 11 aprel kuni o'tkazilgan selektor yig'ilishida tuman va shaharlarni kompleks rivojlantirishni ta'minlash maqsadida hududlar hokim, prokuror, ichki ishlar va soliq idorlari rahbarlari boshchiligidagi 4 sektorlarga bo'linib, boshqaruvning yangi tizimini yaratib berdilar.

Ana shu munosabat bilan, bugun sizlar bilan Muhtaram Prezidentimizning topshiriqlari va ko'rsatmalari ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha oldimizda turgan muhim va ijrosini kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni kelishib olishimiz zarur.

Shundan kelib chiqib, bugungi yig'ilishimizga viloyat hokimining o'rinbosarlari, guruh rahbarlari va kotibiyat mudirlari, huquq-tartibot idoralari, boshqarmalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari, shahar va tuman hokimlari, prokurorlari, ichki ishlar bo'limlari, soliq idoralari, hokimlarning iqtisodiyot va tadbirkorlik, xotin-qizlar va yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, "Nuroni", "Mahalla" jamg'armalari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari taklif etilgan.

Shuningdek, yig'ilishimizda **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi Umar Safaevich Ismoilov** ishtirok etmoqdalar.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari kun tartibidagi masalalar yuzasidan so'zni **Umar Safaevichga beramiz.**

Marhamat!

(Umar Safaevich Ismoilovni ma'ruzasi tugagandan keyin)

Kun tartibi bo'yicha muhokama etilgan masalalar bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

-

Marhamat.....

Kun tartibida ko'rib chiqilgan barcha masalalar, berilgan topshiriq va ko'rsatmalar o'ylaymanki yig'ilishda itirok etayotgan barcha mas'ul rahbarlarga tushinarli bo'ldi.

Faqatgina bor kuch-g'ayratimiz va imkoniyatlarimizni safarbar qilgan holda ish tashkil etsak - bizdan albatta xalqimiz rozi bo'ladi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari shu bilan bugungi yig'ilishimizni yakunlaymiz.

E'tiborlaringiz uchun rahmat!

2017-06-17 12:19:44